

TALABALARDA MILLIY TARBIYA VA AXLOQIY IMMUNITET TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY-TARIXIY KONTEKSTUAL JIHATLARI

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat pedagogika instituti
dotsenti , pedagogika fanlari
bo’yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID:0009-0009-3501-457X
E-mail:arofatabdullayeva95@gmail.com
Tel: +998902024585

Mamasoliyeva Xadichaxon Abduqaxxor qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19415862>

Annotatsiya. Maqolada ta’lim-tarbiyaning barcha ta’lim bosqichlarida uzviylikini ta’minlash, bu borada oila va mahallaning o’rni masalalari muhokama qilingan. Ushbu uzviylik tizimining ayrim jihatlari tahlil qilinib, yanada takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohaza hamda takliflar bildirib o’tilgan. Bunda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish masalasiga alohida urg’u qaratilgan. Milliy va xorijiy olimlar, adiblar asarlaridan misollar, fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar. Yangi O‘zbekiston, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy ta’lim, universitet, gumanizm

Abstract. The article discusses the issues of ensuring the continuity of education at all stages of education, the role of the family and the community in this regard. Some aspects of this continuity system are analyzed, and opinions and proposals for further improvement are expressed. Special emphasis is placed on the development of universal human values. Examples and ideas from the works of national and foreign scientists and writers are given.

Keywords: New Uzbekistan, preschool education, school education, higher education, university, humanism

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo’yicha o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat [1]” deya ta’kidlab o’tgan edilar.

Haqiqatdan ham ilm bir ummon bo’lsa, uni o’zanga soluvchi kuch bu tarbiya va ma’naviyatdir. Buyuk ajdodlarimiz ta’kidlaganlaridek, har qanday ilm manfaatli bo’lishi, ya’ni shaxs, jamiyat va davlat rivoji, taraqqiyoti uchun xizmat qilishi lozim. Afsuski, salbiy illatlarning ham o’z ilmi bor. U o’g’rilikmi, firibgarlikmi yoki boshqa jinoyatmi, har birining o’z ilmi mavjudligi hammamizga ma’lum. Yoki yaxshi manfaatlar keltirishi uchun yaratilgan ixtirolar yomonlik yo’lida ham qo’llanilishi mumkin.

Birgina olovning yaratilishini olaylik. Bizga shirin ovqatlar tayyorlashga xizmat qiladigan olov vaqti kelganda kishilar boshiga kulfat ham yog‘dirishi mumkin. Yoxud tog‘-kon sanoatida qo‘llash uchun yaratilgan Alfred Nobel ixtirosi – dinamit kabi qirg‘inbarot urushlarda millionlab kishilarning yostig‘ini quritishga sababchi bo‘lishi mumkin. Albatta, ayb ixtiroda emas, balki undan ana shu razil maqsadlarda foydalanishdadir. Aks holda, Nobel bir umr yaratgan ixtirosi oqibatlaridan azoblanib o‘tmagan bo‘lar edi [2]. Shu sababdan ham dunyo tuzugi bir me’yorda saqlanishi, sodda qilib aytganda, dunyo buzilib ketmasligi, aksincha, rivojlanib, taraqqiy topib borishi uchun ma’naviyat va uning egalari bo‘lgan ma’rifatli shaxslarga bo‘lgan talab har doim yuqori bo‘lib kelgan. Bunday shaxslarni tarbiyalash va voyaga yetkazish esa aslo bir yoki ikki kunda amalga oshiriladigan masala emas. Ma’lumki, so‘nggi yillarda yurtimizda ta’lim-tarbiyaga Davlat rahbari darajasida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Zero, Birinchi va Ikkinchi renessans poydevori ham shuning ustiga qurilgan edi. Ma’mun akademiyasining barpo etilishida xorazmshoh Ma’muniylar sulolasining, Ikkinchi Uyg‘onish davrining yuzaga kelishida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va temuriy avlodlar, xususan, Mirzo Ulug‘bekning hissasi beqiyos edi. Har ikki sulola hukmdorlari o‘z davrining yorqin iste’dodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to‘plagan va g‘amxo‘rlik qilib, kerakli shart sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo‘lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar.

Bu boradagi islohotlar eshiklari allaqachon ochilgan va bugungi kunda ham jadal tarzda olib borilmoqda. Xususan, bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi: bugungi kunda respublikada 30 mingga yaqin maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 2 milliondan ziyod o‘g‘il-qiz tarbiyalanmoqda. Tizimga bolalarni qamrab olish ko‘rsatkichi 72 foizga yetgan [4]; Umumta’lim muassasalari soni so‘nggi 5 yilda 748 taga oshgan [5]; 2017–2021 yillarda xalq ta’limi tizimiga 45,3 ming nafardan ortiq erkak o‘qituvchilar qaytarilgan [5]; O‘zbek yoshlarining xorijda oliy ta’lim olishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Yuzlab yoshlar “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan har yili jahonning ko‘plab nufuzli universitetlariga davlat hisobidan o‘qishga yuborilmoqda. Birgina 2022 yilda stipendiyalar kvotasi 420 o‘rin etib tasdiqlandi. Jamg‘arma dasturlari kesimida bakalavriatga 120 o‘rin, magistraturaga 180 o‘rin va doktoranturaga 120 o‘rin ajratildi [6]; Oliy ta’lim qamrovi kengaydi. 2022/23 o‘quv yili boshlangan paytda talabalarning umumiy soni 1 040 400 nafarga yetgan [7]; Xususiy va davlat ta’lim muassasalarining soni ortishi natijasida ularning soni 191 taga yetdi [7]; Xotin-qizlarning oliy ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ular uchun qo‘shimcha kvotalar ajratilmoqda. Magistraturada to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarga kontrakt mablag‘lari to‘lab berilmoqda;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatini tubdan takomillashtirish choralari ko‘rildi [8]; Ta’lim tizimining huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. Jumladan, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [9]. Mazkur ro‘yxatni yana ko‘p davom ettirish mumkin.

Albatta, bu borada ko‘plab yangi qonunchilik hujjatlarini qabul qilish hamda ko‘pgina yangi binolarni qurish mumkin. Jahonning nufuzli universitetlaridan professorlarni olib kelish yoki minglab yoshlarimizni nufuzli universitetlarga o‘qishga jo‘natish imkoniyati ham bor. Biroq bularning hammasi moddiyatga taalluqli holatlardir. Shu sababli millatning ma’naviyatini yuksaltirish zarur.

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Ushbu holat hech kinga sir emas. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Milliy o‘zlik va Umumiy o‘rta ta’limda bolalarda milliy ruhni singdirishga e’tibor qaratish kerak. Millatning ruhi uning adabiyotidir. Ayniqsa, umuminsoniy tuyg‘ular, xususan, Vatan himoyasiga oid dostonlar, asarlar, tariximizni anglatuvchi asarlarni o‘qitishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Xalq dostonlari, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat (“Abulfayzxon”), Cho‘lpon, Qodiriy, Said Ahmad (“Ufq” trilogiyasi), Ozod Sharofiddinov, Asqad Muxtor (“Davr mening taqdirimda”, “Buxoroning jin ko‘chalari”), Chingiz Aytmatov (“Asrni qaritgan kun”), Abdulla Oripov (“Sohibqiron”, “O‘zbekiston”), Erkin Vohidov (“O‘zbekim”, “Ruhlar isyoni”), Tog‘ay Murod (“Otamdan qolgan dalalar”), Muhammad Ali (“Ulug‘ saltanat”) va Sirojiddin Sayyid (“Egasi bor yurtning – ertasi bordir”) kabi ijodkorlarning asarlari bunga yordam bermasdan qolmaydi. “Buxoroning jin ko‘chalari” yoki “Asrni qaritgan kun” asarlarini o‘qigan har qanday inson, aminmanki, uning ayrim qahramonlariga o‘xshab manqurt yoki xorijiy hayot shaydosiga aylanib qolmaydi, balki o‘z yurti uchun kerakligi, uning taraqqiyoti yo‘lida xizmat qilishi lozimligi xususidagi hislarni qalbidan o‘tkazadi.

Keltirilgan fikrlar uchun kamina xodimingizni bir tomonlama yondashuvda ayblashingiz mumkin. Negaki ta’lim-tarbiyaga e’tiborni faqat ta’lim va davlat tomonidan amalga oshiriladigan ish sifatida tasvirladim go‘yo. Aslo unday emas. Ta’lim-tarbiyaning eng birinchi maskani bu oiladir.

Olimlarning ta’kidicha, miya tuzilishi bolada uch yoshgacha shakllanadi. Ayni shu davrda bola uchun nihoyatda zarur axborotlar olinadi. Ammo bu vaqtda o‘qituvchi yoki boshqa bir shaxs emas, balki ota-ona, bobo-buvi bola bilan birga bo‘ladi. Qush esa uyasida ko‘rganini qiladi. Ammo yapon olimi Masaru Ibuka aytganidek, bolalarni tarbiyalashdan avval ota-onani tarbiyalash zarur [13]. Chunki bola sof tabiat – fitrat bilan tug‘iladi. U uchun birinchi o‘rnak bu uning ota-onasi. Bola ulardan o‘rnak oladi, o‘sha oila muhitida ularning dunyoqarashi bilan shakllanadi. Shu bilan birga, ota-onasi uzoq safarga ketgan, vasiy yoki homiy qaramog‘idagi bolalar, yetimlar, chin yetimlar bilan ishlashda o‘qituvchi-murabbiylarga katta mas’uliyat yuklanadi. Ular bolalarning individual salohiyatidan kelib chiqqan holda ular bilan birma-bir ishlashlariga to‘g‘ri keladi. Buni men qariyb o‘ttiz yildan beri bolalarga ta’lim-tarbiya berib kelayotgan onamning pedagogik ish tajribalaridan kelib chiqib aytmoqdaman. Shu sababli oilalarda tinchlik, barqarorlik hukm surishi, qobil va komil farzandlar yetishib chiqishi uchun bolalarga oila masalalari ta’limini boshlash vaqti keldi, nazarimizda. Bunda bizga Abdurauf Fitratning “Oila”, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Baxtli oila”, “Sog‘lom bola”, Is‘hoqjon Muhammadjono‘g‘lining “Ta’lim va tarbiya”, Masaru Ibukaning “Uchdan keyin kech”, “Uchgacha ayni vaqti” kabi asarlari ko‘makchi bo‘la oladi, deya o‘ylaymiz.

Sodda qilib aytganda, ota-ona nafaqat bola uchun moddiy, balki ma’naviy ozuqa manbai bo‘lib ham xizmat qilishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida tibbiy ta’lim, qurollar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratish kerak. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi tahlikali zamonda bu yoshlar uchun foydadan holi bo‘lmaydi.

Bundan tashqari yana bir masala borki, unga bo‘lgan e’tibor kelajakka e’tibordir. Mazkur masala – o‘rgimcha to‘ri – internet masalasidir. Bejizga “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarorida aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish ustuvor yo‘nalish qilib belgilanmagan. Bugun biz bolaning qo‘liga smartfon berar ekanmiz, ushbu kichkina quticha bilan dunyoni, insonning aqli-shuuriga sig‘maydigan axborot manbasini ham berayotganimizni unutmashimiz kerak. Smartfon va boshqa zamonaviy texnologiyalardan maqola debochasida ta’kidlangan olov yoki dinamit singari ham foydali yo‘lda, ham zararli yo‘lda birdek foydalanish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar

asosiy axborot manbasiga aylanishga ham ulgurdi, televizorni mutlaqo siqib chiqardi, desak ham mubolag’a bo’lmaydi. Ammo yurist-pedagog sifatida ayta olamanki, kamdan-kam ota-ona bolasining smartfondan qay maqsadda foydalanayotganini biladi. Buni oddiygina “ota-ona nazorati” dasturi orqali amalga oshirish mumkinligini ham bilmaydi. Natijada, tegishli nazoratsiz bola berilgan imkoniyatdan o’z ixtiyoricha foydalanadi yoki g’arazli kimsalar tuzog’iga ilinadi. Shu sababli ushbu soha bo’yicha ham tizimli ishlarni amalga oshirish, ota-onalar o’rtasida targ’ibot ishlarini kuchaytirish, kompyuter savodxonligini kuchaytirish bo’yicha choralarni ko’rish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim va tarbiyani birgalikda olib borar ekanmiz, bolani ta’lim olish, o’qituvchi-tarbiyachini unga ta’lim berish maqsadidan chalg’itmagan holda shunday tarbiya berilishi kerakki, u o’zida milliy ruhni namoyon qilsin, maktabni bitirishdan asosiy maqsadi universitetga kirish, universitetni bitirishdan asosiy maqsadi yaxshi ishga joylashish emas, balki haqiqiy shaxs – Hazrati Inson bo’lib yetishish bo’lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4089>
2. Alfred Nobel – a man of contrasts. URL: <https://studfile.net/preview/2983624/page:4/>
3. Aziz Hakimov. Milliy ta’lim va tarbiya tizimi rivojlantirish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning asosidir URL: <https://yuz.uz/news/milliytalim-va-tarbiya-tizimi-rivojlantirishuchinchi-renessans-poydevoriniyaratishning-asosidir>
4. Maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish bo’yicha 5 yillik dastur ishlab chiqiladi URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/17/preschool-education/>
5. O’zbekistondagi maktablar soni so’ngi ikki yilda 233 taga ko’paygan <https://xs.uz/uzkr/post/oz7>. O’zbekistonda talabalar soni 1 milliondan oshdi <https://kun.uz/news/2023/02/14/>
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-5040-son qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023 y., 06/23/92/0366-son
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023 y., 06/23/92/0366-son
10. Firuza Muhiddinova. Yangi O’zbekistonning kelajak yoshlari: imkoniyat va huquqiy kafolat. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekistonningkelajak-yoshlari-imkoniyat-va-huquqiy-kafolat>
11. “Aksilkorrupsiya alifbosi”. Atamalar va tushunchalar to’plami. “Muloqot” NNT. Toshkent – 2022. 25 bet
12. Uchdan keyin kech / Masaru Ibuka. O’zbek tiliga Nargiza Nurmuhammad tarjimasini. – Toshkent: Akademya, 2021 – 232-bet.